



maktabgacha
va maktab ta'lifi bo'limi tasarrufidagi
—umumi o'rta ta'lim maktabi

10-“ ” SINF RAHBARI


ning

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining
34 yilligiga bag'ishlangan

“Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!”

shiori ostida tayyorlagan bir soatlik

DARS ISHLANMASI



Dars shiori: “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!”

Darsning mavzusi: Vatan uchun yashaylik!

Maqsad:

Ta’limiy: jonajon Vatanimiz – O‘zbekistonimiz milliy taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘yib, barcha soha va tarmoqlarda demokratik yangilanish jarayonlari amalga oshirilayotgan bugungi kunda biz uchun bebaho ne’mat bo‘lgan mustaqillikning qadr-qimmati va ahamiyati haqida ma’lumot berish.

TK2: radiodan eshitgan, televizordan ko‘rgan lavhalarni tushunish va turli manbalardan kerakli ma’lumotlarni izlab topish hamda undan foydalana olish; televizor, radio, telefon orqali berilgan xabarlarini gapirib bera olish;

Tarbiyaviy: Erkin va farovon hayotimizni, buyuk kelajagimizni faqat mustaqillik asosida qurishimiz, odamlarimiz, el-yurtimizni faqat mustaqil siyosat asosida rozi qilishimiz,faqat mustaqillik bugungi va kelgusi avlodlar uchun misli ko‘rilmagan imkoniyatlar ochib berishini o‘quvchilar ongiga singdirish.

TK4: o‘zining o‘quvchilik burch va huquqlarini, vazifalarini bilish va ularga rioya qilish;

davlat ramzlarini bilish, davlat ramzlariga hurmat va ehtirom ko‘rsata olish;

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning mamlakatimiz istiqlolini, u bilan bog‘liq tarixiy sana va voqeа-hodisalarining mohiyatini chuqur anglashi va qadrlashi, har tomonlama munosib nishonlash ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy hayotimizda alohida muhim o‘rin tutishi haqidagi bilim ko‘nikma malakalarini mustahkamlash.

TK5: orasta kiyinish va gigienik talablarga amal qilish;

maktabning ichki qoidalariga va odob-axloq qoidalariga ryoa qilish;

yaxshi va yomon odatlarni bir-biridan farqlay olish;

milliy bayramlarni, milliy qadriyatlarni, o‘zi yashab turgan tarixiy obidalarni bilish va ularni bir-biridan farqlash.

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars jahozi: videoproyektor,ekran,kompyuter, SD disk, tarqatmalar, geometrik shakllar, rag‘bat uchun tangalar, qo‘l telefoni

Dars metodi: firmalarda ishslash, ”Enerjayzer mashqlari”, ”Kayfiyat mashqi”, ”Yosh shoir”, ”Videotopishmoq” strategiyasi, ”Gugurt donalari” strategiyasi, ”Sirli qo‘ng‘iroq” metodi

Darsning borishi:Tashkiliy

“Enerjayzer” mashqlari

O‘quvchilar: Birinchi darsimizni

Assalomdan boshlaymiz.

Birinchi ishimiz bu

Yalqovlikni haydaymiz.

1,2,3.

1,2,3.(O‘quvchilar mashq qilishadi)

“Kayfiyat” mashqi

O‘qituvchi: O‘quvchilar qalaysiz?

O‘quvchi: Qalaymasmiz oltinmiz.

O‘qituvchi: Bugun darsda qandaysiz?

O‘quvchi: Nasib etsa oldinmiz.





-Navbatchi axboroti tinglanadi.

O'qituvchi: Kim sinfda navbatchi?

Navbatchi:

Men sinfda navbatchi

Orasta va sarishta.

Ular doim faollar,

Bugun darsga tayyorlar!

O'qituvchi:

Diyoringning nomini

Bilasanmi bolajon?

Qay yurda yashashingni

Angladingmi bilag'on?

O'quvchi:

Diyorimning nomini

O'zbekiston deydilar!

Dong'i tutgan dunyoni

Bog'-u- bo'ston deydilar!



O'qituvchi: Assalomu-alaykum mening bilimga chanqoq bolajonlarim, mana yana bir yoshga ulg'ayib maktab ostonasiga qadam qo'ydingiz. Men sizlarni bugungi bayram Xalqimizning asriy orzusi bo'lgan, Vatanimizning necha ming yillik tarixida mutlaqo yangi sahifa ochgan, mamlakatimizni xalqaro hamjamiyatning teng huquqli a'zosiga aylantirgan O'zbekiston mustaqilligining yigirma yetti yilligi bilan chin yurakdan tabriklab bu yilgi o'qish va ijodingizda omad tilayman.

Bugungi darsimizni "**Yoshlar – kelajagimiz**" **Davlat dasturi asosida** firmalarga ajratgan holda olib boramiz. Guruh sardori firma rahbari, qolgan o'quvchilar ishchilar etib tayinlanadi.

1-firma:Dear (Aziz)

Firma rahbari: Qudratullayev Muhammadjon

2-firma:Single (Yagona)

Firma rahbari: Toshev Shamshodbek

3-firma:Beloved (Jonajon)

Firma rahbari: Olimova Asilaposhsho

Firmangiz uchun emblema tayyorlashingiz kerak bo'ladi buning uchun har bir ishchining qo'lida tarqatmalar tarqatilgan, savollarga javob berib o'z firmangiz emblemasini tayyorlab olishingiz lozim bo'ladi.

Foydalanish uchun savollar?

1. Vatan nima?

2. Nima uchun Ona Vatan deymiz?

3. Vatanimiz nomi nima?

4. Vatanni yana nima deb atash mumkin?

5. Davlatimiz ramzlarini ayting.

6. Mustaqillik nima?

7. Mustaqillikning necha yilligini nishonlayapmiz?

8. Birinchi Prezidentimiz kim?


9. Hozirda Prezidentimiz kim?

10. 2025-yil qanday yil?



11.Mustaqillik ingliz tilida nima deyiladi?

Har bir firmaga shunga o‘xshash savollar berilgan bo‘ladi.Javoblarini aytib rasmlarni yopishtirishadi va emblema hosil bo‘ladi.



Dear

Firma taqdimoti o‘tkaziladi.

“Dear” firmasi taqdimoti

Dear-aziz, dildan sevgan, qadrdon,biz uchun suyukli degan ma’noni bildiradi.

Aziz-Vatan, aziz-oila, aziz-inson, aziz-maktab, aziz-non, aziz-mahalla, aziz-tabiat va hokazo.....

“Single” va “Beloved” firmalari ham savollarga javob berib xuddi shunday taqdimot o‘tkazishadi.

O‘qituvchi: Demak firmalar ham nomlandi va o‘zining emblemasiga ham ega bo‘lishdi, endi ularning ishlashi uchun joy kerak, buning uchun zamonaviy “Mironkul” tez quriladigan xom-ashyolardan o‘ziga bino qurishi kerak. Xom ashyo olish uchun

1-firma: Muhim sanalarni sanab o‘tishi kerak.

2-firma: Kuz faslida qilinadigan mehnatni aytib o‘tishi kerak.

3-firma: Odob-axloq qoidalari hamda o‘quvchi qoidasini eslashi kerak bo‘ladi.

Savollarga javob bergan o‘quvchilarga zarur xom-ashyolar taqdim etiladi va ular o‘z binolarini qurib olishadi.



O‘qituvchi: Demak firmalar ishlashga shay va ularga buyurtma tushdi.

1-firmaga buyurtma: Vatan haqida she’rlar aytish

2-firmaga buyurtma: Vatan haqida maqol aytish

3-firmaga buyurtma: ”Yayra O‘zbekiston” qo‘shig‘iga raqs ijro etish.

Bular aytgunga qadar 3 ta firmadan 3 ta ishchi chiqib she’rdagi bo‘sh joylarni to‘ldirishi kerak.

“Yosh shoir” metodi. Bunda Zikrilla Ne’matning “Kitobni seving” she’ridan foydalaniladi.

Butun borliq,.....,

Sevgan kabi.....,

Bolajonlar, sizlar ham,

Seving aziz.....,

Foydalanish uchun so‘zlar: kitobni, oftobni, tabiat



Kimki kitob.....,

O'tkazar gar.....

Hayotda u,albatta,

Topgaydir o'z.....

Foydalanish uchun so'zlar: baxtini,o'qish-la, vaqtini

Kitob do'st erur.....,

Butun.....

Uni sevib sizlar ham,

Yeting orzu,.....!

Foydalanish uchun so'zlar: niyatga, mudom, insoniyatga

O'quvchilarni kitobga, kitobxonlikka bo'lgan qiziqishi orttiriladi.

Ishchilar bajargan ishiga qarab rag 'batlantiriladi.

"Videotopishmoq" strategiyasi

Videolavhalar namoyish qilingach har bir firmadan lavhada qanday jarayon,hodisa yoki voqelik aks etganligi qaysi badiiy qahramon yoki tarixiy shaxs ifodalanganligi yuzasidan mushohada yuritish talab qilinadi.Videotopishmoqning javobini topish orqali o'r ganiladigan yangi mavzu haqida ma'lumotga ega bo'ladilar.

1-firma:"O'tmish va bugun" nomli videolavha

2-firma:"Obod qishloq" nomli videolavha

3-firma:"Buyuk siymolar" nomli videolavha

Firmalar rag 'batlantiriladi.



Darsni mustahkamlash “Sirli qo‘ng‘iroq” metodi

Firma rahbarlariga qo‘ng‘iroq bo‘ladi va ular taklif qilingan mavzu bo‘yicha A4 formatga rasm chizishlari lozim bo‘ladi.Firma ishchilari rasm mavzusini topishlari va unga ta’rif berishlari lozim bo‘ladi.

1-firma:Harakatlar strategiyasi



2-firma:Yoshlar ittifoqi



3-firma:Mustaqillikning 34 yilligi



“Gugurt donalari” strategiyasi

Firma rahbarlari rasm chizgunga qadar ishchilarga gugurt donasi tarqatiladi.Bunda firma ishchilariga gugurt donalaridan istagancha olishlari aytildi.Tanlagan gugurt donalari soniga ko‘ra mavzuga oid tushunchalarni aytishi kerak bo‘ladi.

1-firma:O‘zbekiston

2-firma:Tinchlik

3-firma:Maktab

Ishchilar rag‘batlantiriladi.

G‘olib firma aniqlanadi va yillik 7 foiz stavka bilan imtiyozli kredit olish haqidagi sertifikat beriladi. Dars davomida faol ishtirok etgan o‘quvchilarga tashakkurnomalar beriladi.

Darsni yakunlash

Vazifa: “**Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!**” mavzusida ijodiy ish va insho yozib kelish



www.idum.uz veb-sayti ma'muriyati
hamkorlik va taqdim etilgan fayllar uchun
www.zokirjon.com sayti ma'muriyatiga o'z
minnatdorchilik bildiradi

www.zokirjon.com saytidan kerakli fayl va
hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Ma'lumot uchun telefonlar:

+998905306866, +998913977737

Yoki telegram orqali yozishingiz mumkin:
[@nza456](#) yoki [@nza445](#)